

ZAMONAVIY DUNYODA ILM-FAN VA TEXNOLOGIYA

Shuhratova Marjona

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1 bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15788837>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda ilm-fan va texnologiyaning ahamiyati, ularning inson hayoti, ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanishdagi roli tahlil qilinadi. Ilmiy bilimlar va texnologik yutuqlarning ijtimoiy hayotdagi o'rne, zamonaviy tendensiyalar, sun'iy intellekt, raqamlashtirish va barqaror rivojlanish muammolari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение науки и технологий в современном обществе, их влияние на жизнь человека, социальное и экономическое развитие. Анализируются современные тенденции в научной и технологической сферах, включая искусственный интеллект, цифровизацию и устойчивое развитие.

Annotation: This article explores the importance of science and technology in the modern world, focusing on their role in human life, social progress, and economic development. It analyzes contemporary trends such as artificial intelligence, digitalization, and sustainable development.

Kalit so'zlar: Ilm-fan, texnologiya, innovatsiya, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, zamonaviy jamiyat, barqarorlik.

Ключевые слова: Наука, технологии, инновации, цифровая трансформация, искусственный интеллект, современное общество, устойчивость.

Keywords: Science, technology, innovation, digital transformation, artificial intelligence, modern society, sustainability.

Kirish

XXI asr — bu ilm-fan va texnologiyalar asri, deya bema'lol aytish mumkin. Har kuni yangidan yangi ixtirolar, ilmiy kashfiyotlar insoniyat hayotini yengillashtirmoqda. Deyarli har bir sohada raqamlashtirish, avtomatlashtirish, sun'iy intellektdan foydalanish kundalik holga aylangan. Ushbu maqolada ilm-fan va texnologiyaning zamonaviy jamiyatdagi o'rne, ularning hayotimizga ta'siri, muammolar va istiqbollar haqida atroflicha fikr yuritiladi.

...Bugungi sharoitda eng ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada qabul qilingan Milliy dasturga muvofiq, telekommunikatsiya texnologiyalarini, aloqa tizimlari va infratuzilmasini yanada rivojlantirishimiz, informatsion tizimlari komplekslari va «Elektron hukumat» axborot bazasini shakllantirishimiz kerak...1 "- deganda Yurtboshimiz Sh.Miromonovichning naqadar haq ekanligini ko'ramiz.Zamonaviy ilm-fan" atamasining o'ziga ikki xil - vaqtinchalik va falsafiy nuqtai nazardan qarash mumkin bo'lganligi sababli, uning kelib chiqishiga ham xuddi shunday munosabatda bo'lish mumkin. Ikkalasi ham chambarchas bog'liq, shuning uchun ular mustaqil ravishda paydo bo'lishi mumkin emas edi.Ilm-fanning jamiyatdagi o'rni

Ilm-fan — bu tabiat va jamiyat qonuniyatlarini bilishga, ulardan foydalanishga xizmat qiluvchi ijtimoiy institutdir. Har bir taraqqiyot bosqichi ortida muhim ilmiy kashfiyotlar turadi. Elektr energiyasi, telefon, internet kabi ixtirolar insoniyat hayot tarzini o'zgartirdi. Bugungi kunda ilm-fan nafaqat nazariy bilimlar manbai, balki real muammolarni hal qilish

vositasiga aylandi. Texnologiyaning inson hayotiga ta'siri. Texnologik taraqqiyot turmush tarzimizni tubdan o'zgartirdi. Axborot texnologiyalari: Onlayn ta'lim, masofaviy ish, sun'iy intellekt yordamida xizmat ko'rsatish.

Tibbiyotdagi innovatsiyalar: Diagnostika uskunalari, robotlashtirilgan jarrohlik, vaksinalar.

Ijtimoiy hayot: Sun'iy intellekt, raqamli platformalar, virtual haqiqat texnologiyalari kundalik hayotga chuqur kirib bormoqda. Dolzarb yo'nalishlar va muammolar

1. Sun'iy intellekt (AI): Tabiiy tilni qayta ishlash, mashina o'rganish va avtomatlashtirish asosida ishlaydi.

2. Biotexnologiya: Genetik tahrir, organ klonlash kabi yo'nalishlarda salmoqli yutuqlar kuzatilmoqda.

3. Yashil texnologiyalar: Energiya tejamkor qurilmalar, quyosh panellari, chiqindisiz ishlab chiqarish.

4. Axborot xavfsizligi: Raqamli hujumlar va ma'lumotlar maxfiylik muammolari tobora dolzarb bo'lmoqda.

Texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda muayyan xavf-xatarlar ham yuzaga chiqmoqda. Sun'iy intellekt orqali ish o'rinlarining qisqarishi, axborot manipulyatsiyasi, shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi — bular jamiyatdan ongli yondashuvni talab etadi. Ilm-fan va texnologiya inson manfaatlariga xizmat qilishi uchun ijtimoiy va axloqiy mezonlar asosida boshqarilishi lozim. Kelgusida quyidagi sohalarida keskin yutuqlar kutilyapti: Metavers (virtual olamlar): Ta'lim, sog'liqni saqlash, muloqot sohalarida keng qo'llaniladi.

Gibrid texnologiyalar: Inson organizmiga o'rnatiladigan qurilmalar nogironligi bo'lganlarga imkoniyatlar yaratadi. Raqamli iqtisodiyot: Blokcheyn, kriptovalyutalar va elektron xizmatlar asosida shakllanmoqda.

Xulosa

Ilm-fan va texnologiyasiz zamonaviy jamiyat taraqqiy etolmaydi. Ular nafaqat hayotni yengillashtiradi, balki global muammolarga ham yechim topadi. Shu boisdan har bir jamiyat o'z ilmiy salohiyatini rivojlantirib borishi, texnologik taraqqiyotdan oqilona foydalanishi kerak. Chunki ilm-fan va texnologiya — bu kelajakka ochilgan eshikdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulxamidov M. Innovatsion iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Norqulov Q. Ilm-fan va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
4. Tojiboyev S. Axborot texnologiyalari va raqamli madaniyat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. UNESCO. Science Report: The Race Against Time for Smarter Development. – 2021.
6. World Economic Forum. Top 10 Emerging Technologies of 2024.